
Yana bir yosh kitobxon ma'lum bo'ldi.

Qo'shtepa tumanidagi "Yoshlar markazi"da qizg'in bahs-munozalar ostida kechgan "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovida navbatdagi g'oliblar ma'lum bo'ldi.

15-20 yosh toifasidagi 19 nafar nomzodlar bellashuvi natijasida, O'zbekiston tumanidan Kamron Ismoilov 2-o'rinni egalladi. Uchko'prik tumanidan Samandar Yusupov esa 3-o'ringa munosib, deb topildi.

Rishtonlik Dilrabo O'tkirova tanlovning mutlaq g'olibi, deya e'tirof etilib, respublika bosqichida Farg'ona sharafini himoya qiladigan bo'ldi.

Dilrabo O'tkirovaga respublika bosqichida ham zafarlar quchishini tilab qolamiz.











O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Farg'ona viloyati Qo'shtepa
tuman Kengashi matbuot xizmati xodimi Sardorbek Orifov

2019-08-16 12:47:51